

Ilmiy to'garaklar: "Yosh gigiyenist", "The best hygienist-clinician", "Yosh ekolog", "Harbiy gigiyenist", "Yosh gigiyenist va ekologlar".

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti "Kommunal va mehnat gigiyenasi" kafedrasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati "Yosh gigiyenist", "The best hygienist-clinician", "Yosh ekolog", "Harbiy gigiyenist", "Yosh gigiyenist va ekologlar" nomli talabalar ilmiy to'garaklari yo'lga qo'yilgan. To'garak faoliyati talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan. To'garak mashg'ulotlari tasdiqlangan reja asosida muntazam ravishda tashkil etilib, unda a'zolarining faol ishtiroki ta'minlangan. Shuningdek, to'garak doirasida ilmiy maqolalar va metodik materiallar bilan ishlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, mustaqil tadqiqot olib borish ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratildi. Ayrim mashg'ulotlar ochiq dars va davra suhbatlari shaklida tashkil etilib, tajriba almashish imkoniyati yaratildi. Olib borilgan ishlar natijasida to'garak a'zolarining bilim saviyasi oshdi, fanlarga bo'lgan qiziqishi kuchaydi hamda ularning ijodiy va ilmiy salohiyati yanada rivojlandi. To'garak faoliyati kelgusida ham samarali davom ettirilishi rejalashtirilgan. A'zolar o'z yutuqlari bilan rag'batlantirilib, kafedra bilan hamkorlikda faol ilmiy muhitda ishlashmoqda.

To'garak rahbarlari:

M.D.Ashurova, M.K.Azimova, Y.G'.Muydinova, G.Q.Muhammadova, N.O.Uralova, B.Soliyev, R.X.To'xtamatov, D.T.Ismoilov, F.Boqijonov, M.M.Kadirova, Sh.V.Axmadjonova, S.R.Tojiboyeva, M.I.Osbayov, A.R.Xusanov, U.M.Maraimov

To'garak a'zolari soni:

Bugungi kunda "Yosh gigiyenist", "The best hygienist-clinician", "Yosh ekolog", "Harbiy gigiyenist", "Yosh gigiyenist va ekologlar" ilmiy to'garagida 150 dan ortiq talaba faol ishtirok etmoqda. Har bir talaba kafedra assistentlariga biriktirilgan bo'lib, ular o'rtasida "ustoz-shogird" an'analari muvaffaqiyatli shakllantirilgan. Kafedra yig'ilishlarida talabalar ilmiy ish mavzularini tanlash, tadqiqot metodikasini o'rganish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish va ilmiy hisobot yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallab bormoqdalar. Shuningdek, talabalarning oratorlik mahoratini rivojlantirish maqsadida o'z ilmiy ishlari bo'yicha prezentatsiyalar tashkil etilib, ularning tahlili o'tkazilmoqda. Kafedra mudiri va mas'ul o'qituvchilar tomonidan institut iqtidorli talabalariga biriktirilgan ilmiy mavzular shakllantirilgan bo'lib, talabalar tezislar, maqolalar hamda ilmiy hisobotlar tayyorlab borishmoqda. To'garak a'zolari hozirgacha o'tkazilgan xalqaro va respublika olimpiadalari hamda konferensiyalarda faol ishtirok etib, ijobiy natijalar ko'rsatib kelishmoqda. Bundan tashqari, Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti "Kommunal va mehnat gigiyenasi" kafedrasida to'garak a'zolari xalqaro va respublika OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda maqolalar chop etib kelmoqdalar.

